O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR VA OILA MUNOSABATLARIDA IJTIMOIY-MADANIY AN’ANALAR TRANSFORMATSIYASI

Aliqulov Islom Olim o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti 1-kurs magstranti
Ilmiy rahbar: B.M. Qandov CHDPU dotsenti, f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston jamiyatida yoshlar va oila munosabatlarining zamonaviy davrda kechayotgan ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi tahlil qilinadi. Maqolada sotsiologik kuzatuvlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va ilg‘or ilmiy manbalar asosida oila institutining barqarorligini ta’minlashdagi madaniy transformatsiyaning o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, oila, ijtimoiy-madaniy transformatsiya, qadriyatlar, gender tengligi, globalizatsiya, O‘zbekiston.

O‘zbekiston jamiyati mustaqillik yillarida chuqur ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu o‘zgarishlar nafaqat iqtisodiy hayotda, balki oila va yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarda ham sezilarli tarzda namoyon bo‘ldi. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, migratsiya jarayonlari va g‘arb madaniyatining ommaviy kirib kelishi natijasida oila institutining mazmuni, qadriyatlar tizimi va yoshlarning hayotiy qarashlari sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. Oila qadimdan o‘zbek jamiyatining asosiy tayanchi, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy qadriyatlarning uzviy saqlovchisi sifatida e’tirof etilgan. Ammo XXI asrning yangi ijtimoiy sharoitlari bu institutning ichki mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasida muvozanat topishni taqozo etmoqda. Yosh avlodning dunyoqarashi, turmush tarzi, nikohga bo‘lgan munosabati va oila haqidagi tasavvurlari endilikda zamonaviy kommunikatsiya vositalari, internet madaniyati va ommaviy axborot manbalari orqali shakllanmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan yoshlar va oila institutini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun (2016-yil 14-sentabr), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3839-son qarori, shuningdek, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yoshlar tarbiyasi va oila qadriyatlarini mustahkamlash masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan[1]. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda nikoh yoshining ortib borishi, ajrimlar sonining ko‘payishi, turmush tarzi va oilaviy qadriyatlardagi modernizatsiya jarayonlari sotsiologik tahlilni talab qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy-madaniy an’analar transformatsiyasi jarayonini ilmiy o‘rganishning dolzarbligini oshirmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi - O‘zbekiston yoshlarining oila munosabatlarida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlashdir.

Vazifalarni esa quyidagilardan iborat deb o‘ylayman: Oila va yoshlar munosabatlarining sotsiologik asoslarini tahlil qilish; Ijtimoiy-madaniy transformatsiyaning asosiy omillarini aniqlash; An’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zgarishlarni baholash; Oila institutini mustahkamlashda davlat siyosati va madaniy qadriyatlarning o‘zaro ta’sirini yoritish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda oila va yoshlar munosabatlaridagi o‘zgarishlar faqat ijtimoiy nuqtai nazardan emas, balki madaniy, axloqiy va kommunikativ omillar bilan birgalikda o‘rganiladi. Shuningdek, milliy an’analar va global madaniyat o‘rtasidagi dialektik o‘zaro ta’sirga alohida e’tibor qaratiladi. O‘zbekiston jamiyatida oila qadimdan ijtimoiy barqarorlikning tayanchi, madaniy va ma’naviy qadriyatlarning asosiy manbai sifatida qaralgan. Ijtimoiy olim Q. Abdurahmonov ta’kidlaganidek: “Oila – bu jamiyatning eng kichik ijtimoiy tizimi

bo‘lib, unda jamiyatning ma’naviy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha unsurlari mujassam topgan”[2].

Bu fikr, oila jamiyatda nafaqat biologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy funksiya bajarishini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, oila orqali insonlar milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni, axloq me’yorlarini va madaniyatni avloddan avlodga uzatadi. Shu bois, oila ijtimoiy tizimda asosiy barqarorlik omili sifatida qaraladi. Ammo so‘nggi yillarda ijtimoiy-madaniy muhitdagi o‘zgarishlar natijasida bu barqarorlik yangi sinovlarga duch kelmoqda. Yoshlar orasida individualizm, iqtisodiy mustaqillikka intilish va shaxsiy hayot erkinligi qadriyatlari kuchaymoqda. Bu jarayon o‘z navbatida an’anaviy oilaviy munosabatlar modeliga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari ijtimoiy-madaniy transformatsiya mohiyati va omillariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu atamaga Inglehart va Welzel shunday ta’rif beradi: “jamiyatning qadriyatlar tizimi va ijtimoiy institutlarining modernizatsiya jarayonida ma’lum darajada o‘zgarishlarga moslashuvi”ni bildiradi[3]. Bu nazariy qarashga tayanib aytish mumkinki, O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin sodir bo‘lgan transformatsiya nafaqat iqtisodiy sohada, balki ma’naviy va madaniy muhitda ham chuqur ildiz otgan.

Masalan, avvallari oilada erkakning ustun mavqei tabiiy hol sifatida qabul qilinar edi, bugungi kunda esa gender tengligi tamoyili ijtimoiy me’yorga aylanmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning nikohga bo‘lgan munosabatida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi - ular ko‘proq o‘z mustaqil tanlovini qadrlaydi, shaxsiy erkinlikni asosiy qadriyat sifatida e’tirof etadi. Bu o‘zgarishlar, menimcha, ijobiy jarayon sifatida baholanishi lozim, chunki ular jamiyatda demokratik tafakkur, shaxs erkinligi va mas’uliyat madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ammo bu holat bilan birga, individualizmning haddan ortiq kuchayishi oila birligini zaiflashtirishi mumkin, shu sabab, milliy qadriyatlarni himoya qilish zarur. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib yoshlar qadriyatlarida an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanatga to‘xtaladigan bo‘lsam, bu haqida Karimova M. O‘z tadqiqotida shunday yozadi: “Bugungi o‘zbek yoshlarining oila haqidagi qarashlarida ikki qutb - an’anaviylik va zamonaviylik - o‘zaro raqobat holatida namoyon bo‘lmoqda. Biri hurmat, sabr, sadoqatni e’zozlasa, ikkinchisi shaxsiy erkinlik va o‘zini ro‘yobga chiqarishni ustuvor deb biladi”[4]. Bu tahlil O‘zbekiston yoshlari orasida qadriyatlar sintezi jarayoni ketayotganini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, ular an’analarni inkor etmaydi, balki ularni zamon talablari asosida qayta talqin qilmoqda. Masalan, ilgari ota-onaning roziligisiz turmush qurish qabul qilinmas edi, hozirda esa bu qaror ko‘pincha yoshlarning shaxsiy tanloviga aylanmoqda. Shaxsiy fikrimcha, bu jarayon ijtimoiy muvozanatni buzmaydi, aksincha, oila institutining yangi, yanada moslashuvchan shaklini yaratadi. Chunki transformatsiya jarayoni an’analarni yo‘qotish emas, balki ularni yangicha ma’noda davom ettirish imkonini beradi. Bularsan tashqari oilaviy munosabatlarga globalizatsiya, internet madaniyati va raqamli transformatsiyaning ta’sirini ham qo‘shish mumkin deb o‘ylayman. Fikrimni Sotsiolog M. Castellsning “tarmoqli jamiyat” (network society) fenomenini ta’riflagan quidagi so‘zlari bilan izohlamoqchiman.

“Raqamli aloqa vositalari insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning shaklini o‘zgartirib, ularni geografik hududdan mustaqil, virtual aloqalar tizimiga aylantirdi”[5]. Bugungi o‘zbek yoshlarining oila, sevgi, nikoh haqidagi qarashlari ham aynan shu “virtual madaniyat” ta’sirida shakllanmoqda. Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalarda oila hayoti, nikoh, munosabatlar haqidagi ommaviy tasvirlar yoshlarning ongida yangi “axloqiy me’yorlar”ni yaratmoqda. Bu holatning ijobiy jihati - ochiqlik va erkin fikrlashning rivojlanishidir. Ammo salbiy tomoni - ayrim hollarda oilaning muqaddaslik konsepsiyasining nisbiylashuvi, shaxsiy manfaatning jamoaviy qadriyatlardan ustun qo‘yilishidir.

Bu borada, menimcha, O‘zbekiston ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va diniy-ma’naviy institutlar yoshlarni raqamli madaniyatning oqilona iste’molchisi bo‘lishga o‘rgatishi zarur. Chunki transformatsiya jarayonida eng muhim narsa — yo‘nalishning to‘g‘riligidir. O‘zbekiston jamiyatida yoshlar va oila munosabatlaridagi ijtimoiy-madaniy an’analar transformatsiyasi - bu ijtimoiy rivojlanishning tabiiy, ammo murakkab bosqichidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davrda yoshlar qadriyatlari tizimi an’anaviylik va zamonaviylik

o‘rtasidagi dinamik muvozanat asosida shakllanmoqda. Bunda global axborot oqimi, raqamli madaniyat, gender tengligi va davlat siyosatining yo‘nalishlari bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu haqida Sotsiolog Q. Abdurahmonov ta’kidlaganidek: “Oila – bu jamiyatda madaniyat, qadriyat va axloqiy me’yorlarning uzviy shakllanadigan maktabidir; u yo‘qolsa, jamiyatning ijtimoiy tayanchi ham yemiriladi”[6]. Bu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, oila transformatsiyasi jarayonida eng asosiy vazifa - an’anaviy qadriyatlarni zamonaviy sharoitga moslashtirish, ularning mazmunini yo‘qotmasdan yangilashdir. Chunki oila ijtimoiy barqarorlikning ildizidir, uni modernizatsiya nomi bilan zaiflashtirish emas, balki zamonaviy muhitda mustahkamlash zarur.

Bizningcha, Abdurahmonovning ushbu qarashi bugungi O‘zbekiston uchun g‘oyat dolzarb: oila “madaniyat maktabi” sifatida yoshlarni shunchaki jamiyatga tayyorlamaydi, balki ularni ma’naviy jihatdan shakllantiradi. Shu sabab, transformatsiya jarayonida milliy oila modeli o‘ziga xos “madaniy immunitet”ga ega bo‘lishi kerak - bu esa global bosimlarga qarshi turish, milliy identitetni saqlash va ma’naviy merosni davom ettirishga xizmat qiladi. Yakuniy xulosa sifatida shuni aytishim mimkinki, O‘zbekiston yoshlarida oila qadriyatlarining o‘zgarishi - ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy belgisi. Biroq bu o‘zgarishlar nazoratsiz kechmasligi, balki milliy qadriyatlar asosida boshqarilishi kerak. Shu yo‘sinda, transformatsiya jarayoni millatning madaniy barqarorligiga, oilaning mustahkamligiga va yoshlarning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ–3839- son qarori - “Yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. Abdurahmonov Q. Oila sotsiologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2020

3. Inglehart R. Welzel C. Modernization, Cultural Change, and Democracy. Cambridge University Press. 2005.

4. Karimova M. Oila qadriyatlarining modernizatsiya jarayonlari. O‘zbekiston Sotsiologiya jurnali, №3, 2021. 45–56-betlar.

5. Castells M. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell. 2010.

6. Bauman Z. Liquid Times: Living in an Age of Uncertainty. Polity Press, 2007.

DAVLAT VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI ISHONCH MUVOZANATINI MUSTAHKAMLASHGA DOIR KONSEPTUAL YONDASHUVLAR EVOLYUTSIYASI

U.O‘.O‘rinboyev
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, va siyosiy munosabatlarda ishonch muvozanatining rivojlanish evolyutsiyasi haqida so‘z boradi. Mavzuning dolzarbligi zamonaviy davlat boshqaruvidagi ahamiyati keng yoritilgan. Ushbu mavzuni o‘rganish davomida bir qancha mahalliy va xorijiy olimlarning asarlaridan nazariy metodologik manbaa sifatida foydalanilgan. Bundan tashqari adabiyotlar tahlil qilinib mavzu yuzasidan ulardagi o‘xshashlik va farqli jihatlari o‘rganilgan. Ijtimoiy va institutsional ishonch barqarorligini ta’minlashga doir bir qancha taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, jamiyat, ishonch va ishonch muvozanati, ijtimoiy munosabatlar, davlat xizmatchlari, liderlik qobilayati, kadrlar salohiyati, barqarorlik, konsepsiya va yondashuv, ijtimoiy birdamlik.

Davlat va jamiyatning paydo bo‘lishi kishilik tarixiy tafakkurining maxsuli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarixan insonlar o‘zaro munosabatlarni ma’lum bir darajadagi ishonch asosiga qurishgan. Bu jarayon hanuzgacha shunday davom etib kelmoqda. Ijtimoiy munosabatlarda

birinchi tomon ikkinchi tomonga muayyan manfaat yoki rag‘bat evaziga ishonch bildirgan. Bu yondashuv davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda xam o‘z aksini topgan. Davlat boshqaruvining taraqqiy etishi va jamiyat rivoji uchun, xalqning farovonligi, ularning kelajakka ishonch hamda islohotlarga nisbatan ijobiy ruhda qarashga da’vat etishda kadrlarning yuqori intellektual salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz ko‘plab buyuk sarkardalar va yetakchilar davlat boshqaruvini amalga oshirgani, ularning faoliyatiga esa bazan ijobiy bazan salbiy qarashlar mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu davlat raxbarlari faoliyatining samaradorligi ularning xalq manfaatlariga xizmat qilganligi va odamlarni rozi qilishga qo‘shgan xissasi bilan baholanadi. Markaziy Osiyoda xukmronlik qilgan tarixiy shaxslar va ularning davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy boshqaruv usullari davlatchilik tarixida muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

“Jumladan, qadimgi Kushon podshohligida xukmdor Kanishka o‘zining siyosiy tafakkuri, donoligi va xarbiy mahorati bilan shuxrat qozongan bo‘lsa, Turk xoqonligida Bumin xoqon, Istami xoqon va Bilga xoqon kabi xarizmatik raxbarlar turkey xalqlarning birdamligini saqlab qolish va davlat qudratini oshirishda katta xissa qo‘shganlar. Shuningdek Qoraxoniylar davlatida Tamg‘achxonning, Somoniylar davlatida esa Ismoil Somoniyning yetakchilik sifatlari o‘z davlatining siyosiy va madaniy jihatdan yuksalishiga sabab bo‘lgan”[1].

Bunday davlatchilik silsilalarini uzviy davomi sifatida G‘aznaviylarning hukmronligini ham alohida ta’kidlash o‘rinli. Bu davrda ham bir nechta kuchli yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan davlat raxbarlari xukmronlik qilgan. Mahmud G‘aznaviy shulardan biri edi. U o‘zining mohirona davlat boshqaruvida davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda kuchli lider sifatida qaralgan.

Saljuqiylar davlatining hukmronligida ham yuksak siyosiy tafakkurga ega hukmdorlar Tug‘ril Beg, Alp Arslon, Malikshox va Sulton Sanjar sulolaning dovrug‘ini yetti iqlimga yoyishda kuchli iroda, yuksak xarbiy mahorat, xalq bilan birdamlik va ijtimoiy ishonchga tayandilar.

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini o‘rganishga doir konsepsiyalar evolyutsiyasida Xorazmshoxlar davlati boshqaruv tizimi alohida ahmiyat kasb etadi. Ayniqsa Alouddin Muhammad Xorazmshohning hukmronlik davri va undan keyingi voris Jaloliddin Manguberdining vatan mudofaasi yo‘lidagi cheksiz jasorati tahsinga loyiq. U dushmanga qarshi turishda ijtimoiy ishonch va xalq birdamligi eng kuchli qudrat ekanligini anglagan holda yovga qarshi mardonavor kurashgani bilan tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 29-avgustda Urganch shaxrida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida buyuk sarkardaning xayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish va uning merosini xalqimiz, ayniqsa yoshlar orasida keng targ‘ib qilish muxim ekanini aloxida ta’kidlagan edi. Prezidentimiz Jaloliddin Manguberdining shaxsiyati haqida: “Chaqmoqdek qisqa umri mobaynida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak xarbiy salohiyatni namoyon etib yashagan Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz bilan qancha faxrlansak, g‘ururlansak, arziydi.Ishonaman, oradan yillar, asrlar o‘tadi, Sulton Jaloliddin xamisha yurtimizni ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylash, unga farzandlik mexri, iymon-e’tiqod bilan xizmat qilishning o‘chmas timsoli bo‘lib qoladi ”[2] deya ta’kidlagan edi. Jaloliddin Manguberdi uzoq muddat hukmronlik qilmagan bo‘lsada vatan mudofaasi uchun dushmanga qaqshatqich zarba bergan, shu bilan o‘zini jasur sarkarda sifatida namoyon etgan.

Sohibqiron Amir Temur barpo etgan ulkan markazlashgan davlatchilik va Temuriylar davri davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlashga qaratilgan kuchli strategik siyosati bilan nafaqat O‘zbekiston balki butun dunyo tarixi uchun ahamiyatli davr hisoblanadi. Bu davrda ijtimoiy ishonchni shakllantiradigan asosiy manbaa bu Amir temurning “Kuch – adolatda” g‘oya bo‘lib. Adolat davlat boshqaruvining har jabhasida xalq ishonchini qozonishda bosh me’zon sifatida qaralgan. “Sohibqiron Amir Temur bobomiz biz, avlodlarga qoldirgan vasiyatida g‘oyat muhim bir fikrga urg‘u berib, “El dardiga darmon bo‘lmoq – ezgu vazifangizdir” deya ta’kidlagani,

[1] Саидова М. Янги Ўзбекистон давлат бошқарувида харизматик кадрларга муносабат эволюцияси // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2025. -№ 1(107). – Б. 48.
[2] O‘zbekiston Milliy axborot agentligi saytidan. https://uza.uz/posts/402934

albatta bejiz emas”[1]. Amir Temurning ushbu fikrlaridan ham bilishimiz mumkinki, o‘zbek davlatchiligi tarixi davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini asoslovchi kuchli evolyutsion bosqichlardan iborat. Temuriylar sulolasining yana bir yorqin vakili mohir sarkarda katta imperiya asoschisi Zaxiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. Uning mohirona jang strategiyasi, kuchli davlat boshqaruvi, yuksak aql tafakkuri nafaqat o‘z xalqi balki e’tiqodi, millati va kelib chiqishi xar xil bo‘lgan xalqlarni ham bir bayroq ostida birlashtirishga yordam berdi. Uning bu ishlari Boburning buyuk birlashtiruvchi kuch sohibi bo‘lganini yana bir bor isbotlaydi. Z.M.Boburning buyuk shaxsligini hind siyosatchisi Javoharlal Neru o‘zining “Hindistonning kashf etilishi” nomli asarida Z.M.Boburga quyidagicha ta’rif beradi: “Bobur dilbar shaxs edi. Uyg‘onish davrining ajoyib sultoni kuchli, tadbirkor kishi bo‘lib, san’atni, adabiyotni, go‘zallikni sevardi”[2].

Bu fikrlarning nechog‘lik rostligini Z.M.Boburning qoldirgan beqiyos ma’naviy merosidan ham bilishimiz mumkin.

Shuningdek O‘rta Osiyo hududida tarixan shakllangan amirlik va xonliklar hukumati davrida ham bir qancha hukmdorlar xalq va davlat o‘rtasida ishonchga tayangan holda hokimiyatni amalga oshirishgan. Ular jumlasiga Buxoro amiri Amir Xaydar, Qo‘qon xonligida islohotlarni amalga oshirgan Shohruhbey, Olimxon va Muhammad Alihonlarning davri e’tirof etiladi. Xiva xonligida Eltuzarxon va Muhammad Rahimxon I davri alohida axamiyatlidir.

Xonliklar tanazzulidan keyingi bosqich Sovet ittifoqi hukumatining qaror topishidir. Ushbu davrda davlat boshqaruvida raxbar va kadrlar to‘liq kommunistik ruhda tarbiyalandi.

“Bu davrda sotsializm g‘oyasi ilgari surilib, xarizmatik kadrlarga Shubha ostida qaralgan va ular inkor etilgan. Buning natijasida jamoat tashkilotlari o‘z oldilariga yolg‘on yoki xato maqsadlar qo‘yishga, majburiy volyuntaristik, o‘ylanmagan qarorlar qabul qilishga majbur bo‘lar edilar. Boshqaruv tizimida xodimlar soni keragidan ortiq miqdorda bo‘lib, raxbar kadrlarning tashabbuskorligi, ishbilarmonligi so‘ndirilgan va tizimning o‘zini o‘zi rivojlantirishga rag‘bati xam yo‘q edi. Shuningdek, boshqarish tizimi fan-texnika taraqqiyoti talablariga, sotsial-iqtisodiy extiyojlarning o‘sib borishiga moslasha olmas edi.”[3].

Bu jarayon mustaqillikdan keyin ham o‘z asoratlarini ko‘rsatmay qolmadi. Yangicha tafakkur va erkin fikrga ega kadrlarni tarbiyalash va ularni munosib davlat xizmati lavozimlariga qo‘yish osonlikcha kechmadi. Jumladan mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab asosan huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlarida maxsus xizmatni o‘tash tartibi alohida qonunchilik bilan belgilandi. 2017-yildan boshlab mamlakatimizda barcha sohalarda tub islohotlar davri boshlandi. Bu davrga kelib Prezident Sh.Mirziyoyev kadrlar siyosatini yuritishda asosiy etiborni davlat xizmatchilarining yetakchilik, tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik hususiyatlariga , xalq bilan yaqinlik, muammolarni joyiga chiqqan holda aholining ichiga kirib o‘rganish mezonlariga qaratdi.

Albatta davlat fuqarolik xizmati faoliyatining huquqiy asosini yaratish Yangi O‘zbekistonni barpo etishning asosiy shartlaridan biri edi. Buning natijasida 2022-yil 8-avgustda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son qonun qabul qilindi. Ushbu qonun tom manoda tarixiy bo‘lib mustaqil O‘zbekiston tarixidagi davlat fuqarolik xizmatini tartibga solib turuvchi yagona, asosiy huquqiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Albatta sohani huquqiy tartibga solish shu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. Davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, davlat xizmatchilari ishini natijadorlikka yo‘naltirish, aholining davlat xizmatiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish, sohaga istiqbolli kadrlarni jalb qilish va ularni professional mutaxassis etib tayyorlashning samarali tizimini joriy qilish, shuningdek, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini

[1] Салимов О., Куронбоев К., Бекмуродов М., Тангриев Л. Бошқарув хикмати. – Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – 2018. – Б. 38.
[2] Javoharlar Neru. “Hindistonning kashf etilishi” kitobidan.
[3] Рахимова Д., Абдулкосимов Х., Абдурахманов О. Бошқарув тизими ва рахбар – Т.: Тошкент давлат техника университети. – 2004. – Б. 38.

ta’minlash maqsadida”[1] 2025-yilning 19-iyun sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”PF-95-sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu normativ huquqiy hujjatlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlashda yuksak malakali va intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan davlat xizmatchilarini tayyorlashda asosiy huquqiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” g‘oyasi bilan boshlangan keng qamrovli islohotlar, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu islohotlarning markazida inson uning qadr-qimmati va manfaatlarining ustuvorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinlarini himoya qilishni kafolatlash, jamiyatda ijtimoiy ishonchning barqarorligini mustahkamlash maqsadlari turibdi.

Ijtimoiy hayotdagi ushbu o‘zgarishlar doirasida ijtimoiy-siyosiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik mehanizmlari takomillashib, jamiyat a’zolarining davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi va qo‘llab-quvvatlovini oshirishga xizmat qiladigan tizimli yondashuvlar kuchaymoqda. Buning oqibatida O‘zbekiston jamiyati rivojlanishning sifat jihatidan mutlaqo yangi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanati mustahkamlanayotgan davrga kirib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саидова М. Янги Ўзбекистон давлат бошқарувида харизматик кадрларга муносабат эволюцияси // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2025. -№ 1(107). –170 б.

2. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi saytidan. https://uza.uz/posts/402934

3. Салимов О., Қуронбоев К., Бекмуродов М., Тангриев Л. Бошқарув хикмати. – Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – 2018. – Б. 38.

4. Javoharlar Neru. “Hindistonning kashf etilishi” kitobidan.

5. Рахимова Д., Абдулқосимов Х., Абдурахманов О. Бошқарув тизими ва рахбар – Т.: Тошкент давлат техника университети. – 2004. – Б. 38.

6. https://www.lex.uz/uz/docs/-7587464 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”PF-95-sonli farmoni.